

## SAMARQAND SHAHRI VA UNING IJTIMOIIY SOHADA TUTGAN O'RNI

Husanov Suxrob Samariddin o'g'li

Navoiy davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15142086>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand viloyatining ijtimoiy sohasida Samarqand shahrining o'rnini naqadar yuqoriligini ko'rsatib berilgan, tahlil etilgan va xarita modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar shu yo'sinda saqlab qolinsa yoki shu tendensiyada o'sishda davom etadigan bo'lsa, shaharda ulkan demografik bosim vujudga kelishi hamda bu bosim ko'plab ekologik, infratuzilmaviy va boshqa muammolarga sabab bo'lishi ilmiy bashorat qilingan.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, demografik bosim, shahar monopoliyasi, noqulay geourbanistik muhit, ta'lim muassasalari.

## THE CITY OF SAMARKAND AND ITS PLACE IN THE SOCIAL FIELD OF THE REGION

**Abstract:** This article shows the high position of the city of Samarkand in the social sphere of the Samarkand region analyzes and develops a map model. It is also scientifically predicted that if these indicators are maintained in this direction or continue to grow in this trend, a huge demographic pressure will arise in the city and this pressure will cause many environmental, infrastructural and other problems.

**Key words:** sustainable development, demographic pressure, city monopoly, unfavorable geo-urban environment, educational institutions.

## ГОРОД САМАРКАНД И ЕГО МЕСТО В СОЦИАЛЬНОМ ПОЛЕ ОБЛАСТИ

**Аннотация:** в данной статье показано высокое положение города Самарканда в социальной сфере Самаркандской области, анализируется и разрабатывается модель карты. Также научно прогнозируется, что если эти показатели сохранятся в этом направлении или продолжат, расти в этом направлении, то в городе возникнет огромное демографическое давление и это давление вызовет множество экологических, инфраструктурных и других проблем.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, демографическое давление, городская монополия, неблагоприятная геοурбанистическая среда, образовательные учреждения.

Dunyo miqyosida har bir rivojlangan mamlakatning rivojlanish sabablarini o'rganmaylik, taraqqiyot sabablari orasida albatta mamlakatda joylashgan shaharlarning barqaror rivojlanishdagi o'rni katta ekanini ko'ramiz. Chunki, shaharlar bugungi global dunyoda mamlakatlarning iqtisodiy qudratini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Shuningdek, shaharlar - bizning o'tmishimiz, hozirgi kundagi qudratimiz va istiqbolda rivojlanish quvvati va imkoniyatimizdir [1]. Shu sababdan shaharlarning demografik roli va urbanizatsiya darajasining barqaror rivojlanishdagi ahamiyatini o'rganishning yildan-yilga dolzarbligi oshmoqda. Ammo ko'pchilik avtoritar mamlakatlarda shaharlar rivojlanishi sun'iy dinamikada hamda rejalashgan holda amalga oshadi. Shaharlar


o'rtasida o'zaro iqtisodiy raqobat bo'lmaydi hamda rivojlanish jarayoni bir xil suratda, xuddi oldindan chizib qo'yilgandek amalga oshadi. Bunda shaharsozlik rivojida eng katta e'tibor markaz shaharga qaratiladi. Natijada, ma'muriy birlik doirasida shahar monopoliyasi vujudga keladi. Mustaqillik davrining dastlabki 20-30 yili davomida ko'plab Markaziy Osiyo mamlakatlari shaharlarida ham ushbu jarayon kuzatilgan va mana shu noqulay geourbanistik muhitning ta'siri hali ham shaharlarimiz rivojlanishiga salbiy ta'sir etib kelmoqda. Xususan, Samarqand viloyatida ham juda katta ijtimoiy va demografik ko'rsatkichlariga ko'ra o'zi joylashgan viloyatda yaqqol yetakchi rolini bajarmoqda.

Mazkur muammo oid masalalar A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M.Egamberdiyevlar tomonidan o'rganilib, tarixiy, madaniy, turistik, demografik va urbanistik jihatlari ochib berilgan. Ammo, fikrimizcha Samarqand viloyatida joylashgan shahar va shaharchalarni mamlakat va viloyat hayotidagi ijtimoiy ta'siri va rolini o'rganish, chuqur tadqiq qilish bosh vazifa sifatida qaralmog'i lozim.

Samarqand shahri viloyatdagi asosiy ma'muriy hududiy birliklardan biri hisoblanib, ijtimoiy sohalar bo'yicha ham viloyatning oldi ma'muriy birliklaridan biri sanaladi. Xususan, ta'lim sohasida ushbu juda yirik shaharning viloyatda ancha ustun ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'ramiz. Misol tariqasida, 2022-yil holatiga ko'ra, Samarqand shahrida viloyat aholisining 13.9 % qismi yashagan holatda viloyatdagi jami maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining 17.2 %i, ya'ni 921 tadan 159 tasi aynan markaz shahar hududida joylashganini ko'rish mumkin. Shuningdek, viloyatda jami tarbiyalanuvchilar soni 155835 nafar bolani tashkil bo'lib, shundan 18 %i ya'ni 28128 nafar aynan viloyatning markaz shahri bog'chalari tomonidan qamrab olingan [2].

Shuningdek, 2022-2023-o'quv yili mobaynida Samarqand viloyatidagi jami 1310 ta umumta'lim muassasasining 103 tasi aynan Samarqand shahrida ekani va bu mos ravishda viloyat umumta'lim muassasalarining 7.8 %ini tashkil etgan.

## SAMARQAND VILOYATI TA'LIM MUASSASALARI



**1-rasm. Samarqand viloyati ta'lim muassasalari xaritasi**

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, o'quv yili davomida viloyatda jami 766856 nafar o'quvchi maktablarda ta'lim olgan bo'lsa, shundan 13.9 %i ya'ni 107276 nafar aynan viloyatning markaz shahri maktablaridan ta'lim olgan. Bu ko'rsatkichlar shahar maktablarida o'quvchilar zichligining yuqori ekanini ham bildiradi. Tadqiqot davomida o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining (kasb-hunar maktabi, kasb-hunar kolleji, texnikum va litseylar) ham katta qismi birgina Samarqand shahrida joylashtirilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Samarqand viloyatida jami 88 ta o'rta-maxsus ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan holda, shundan 22 tasi viloyatning birinchi raqamli shahrida joylashgan. Muassasalarning deyarli 1/4 qismi birgina Samarqandda joylashgani shaharning viloyatdagi ijtimoiy-ta'limiy obrusi nihoyatda yuqorilab ketganini anglatadi. (1-rasm.)

Albatta, oliy ta'lim tashkilotlarini joylashtirishda shaharlarning demografik, infratuzilmaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari asos qilib olinadi. Samarqand viloyatida jami 14 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan holda shundan 11 tasi Samarqand shahridan o'rin topgan. Qolgan 3 ta oliy o'quv yurtlari esa mos ravishda Kattaqo'rg'on shahri, Payariq va Oqdaryo tumanlaridan o'rin topgan.[3]

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlarga tayanadigan bo'lsak, Samarqand shahrining viloyatdagi ijtimoiy va ta'limiy ahamiyatining ham nihoyatda yuqoriligi haqida xulosaga kelish mumkin. Ushbu jarayon shaharning viloyatdagi immigratsiya markaziga aylantirib qo'yganligi shaharda aholi zichligi oshishiga, bu esa markaz shaharda transport bosimi, atmosfera havosi ifoslanishiga hamda nisbatan kichik maydondagi shahar hududiga katta demografik yuklama yuklaydi.

Dunyodagi murakkab demografik va siyosiy vaziyat fonida insonlarning yanada yashash uchun qulay makonga bo'lgan intilishi ortib boraveradi. Kelajakda esa ushbu qulay makon vazifasini albatta, shaharlar bajaradi. Shunday ekan, ushbu katta demografik bosimga shaharlarni tayyorlash uchun masalaga ilmiy yondashuv bilan yondashishimiz kerak. Samarqand viloyati markaziy qismi bo'lgan Zarafshon vodiysi qadimdan o'zlashtirilgan madaniy yerlardan iborat bo'lishiga qaramasdan, keying yillarda asosiy mummoga aylanishi kutilayotgan chuchuk suv muammosi hamda Respublikadagi ulkan demografik salohiyat sabab ziroatchilik hududi bo'lmish Zarafshon vodiysi aholi uchun torlik qilib boraveradi. Shu sababdan viloyat markazi - Samarqand shahri ulkan ta'limiy salohiyati sabab yaqin 10-20 yillikda nafaqat viloyatda balki Respublikadagi asosiy immigratsiya markazi maqomini saqlab qoladi. Bu esa albatta shaharda ulkan ekologik va boshhqa turdagi muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu muammolarni vujudga kelishini oldini olish uchun viloyatda iqtisodiy korxonalar bilan birgalikda ta'lim muassasalarini ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarini ham tumanlar aro qulay geografik o'rinlarga joylashtirish kerakligini anglatadi. Shundagina biz viloyatning yadrosi hisoblangan Samarqandda ulkan demografik bosimlarni sezmaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Shaharlar geografiyasi T.: 2018, B-9.
2. <https://samstat.uz>
3. <https://stat.uz>